

SOMERET MOEM VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA AYOL OBRAZINING BADIY TALQINI

Sheraliyeva Dildora Abduvaxob qizi,

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Tayanch doktorant

dildorasheraliyeva007@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazining badiiy talqini qiyosiy-adabiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotda ayol qahramonlarning ruhiy murakkabligi, ijtimoiy mavqei, axloqiy pozitsiyasi va poetik vazifasi badiiy matnlar hamda adabiyotshunoslikdagi ilmiy qarashlar asosida yoritiladi. Shuningdek, har ikki adib ijodida ayol obrazining umumiy va o'ziga xos jihatlari, xarakter yaratish mahorati, psixologik tasvir usullari hamda estetik konsepsiyasi tahlil qilinadi. Izlanish natijasida Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazi davr ruhiyati, ijtimoiy ziddiyatlar va insoniy kechinmalarni mujassamlashtiruvchi muhim badiiy markaz sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, poetik tahlil, ruhiy murakkablik, ijtimoiy mavqe, axloqiy pozitsiya, psixologik tasvir, badiiy talqin.

Аннотация. В данной статье художественная интерпретация женского образа в рассказах Сомерсета Моэма и Абдуллы Каххара исследуется с сравнительно-литературной точки зрения. В исследовании на основе художественных текстов и научных взглядов в литературоведении освещаются психологическая сложность, социальный статус, нравственная позиция и поэтическая функция женских персонажей. Также анализируются общие и своеобразные черты женского образа в творчестве обоих писателей, мастерство создания характера, способы психологического изображения и эстетическая концепция. В результате исследования обосновывается, что женский образ в рассказах Сомерсета Моэма и Абдуллы Каххара выступает как важный художественный центр, воплощающий дух эпохи, социальные противоречия и человеческие переживания.

Ключевые слова: женский образ, поэтический анализ, психологическая сложность, социальный статус, нравственная позиция, психологическое изображение, художественная интерпретация.

Abstract. This article examines the artistic interpretation of the female image in the short stories of Somerset Maugham and Abdulla Kahhor from a comparative literary perspective. The study highlights the psychological complexity, social status, moral position, and poetic function of female characters on the basis of literary texts and scholarly views in literary studies. It also analyzes the common and distinctive features of the female image in the works of both writers, their skill in character creation, methods of psychological portrayal, and aesthetic conception. The study demonstrates that in the short stories of Somerset Maugham and Abdulla Kahhor, the female image functions as an important artistic center embodying the spirit of the age, social contradictions, and human experiences.

Keywords: female image, poetic analysis, psychological complexity, social status, moral position, psychological portrayal, artistic interpretation.

Kirish. Badiiy adabiyotda ayol obrazi inson ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamda davr ruhiyatini ifodalashda alohida estetik ahamiyat kasb etadi. So'z san'atida ayol timsoli faqat voqealar rivojini ta'minlovchi unsur emas, balki muallifning hayot haqidagi qarashlari, badiiy niyati va xarakter yaratish mahoratini namoyon etuvchi muhim tasvir vositasidir. Shu bois ayol obrazi badiiy matnning mazmuniy qatlamini chuqurlashtiruvchi va uning poetik ta'sirchanligini belgilovchi

omillardan biri hisoblanadi. Bu jihat qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Adabiy jarayon tarixida ayol obrazi turli davrlarda turlicha mazmun va vazifa kasb etgan. Mumtoz asarlarda u ko‘proq go‘zallik, muhabbat va sadoqat timsoli sifatida tasvirlangan bo‘lsa, keyingi davrlarda ayol qahramonning ichki olami, ruhiy iztiroblari, jamiyat bilan munosabati va individual qismati tasvir markaziga chiqa boshladi. Ayniqsa, XX asr hikoyachiligida ayol obrazi faqat mavzu emas, balki poetik va estetik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoya janrida o‘ziga xos uslub yaratgan ijodkorlar sifatida ayol obrazini turli badiiy tamoyillar asosida talqin qiladilar. Ularning asarlarida ayol qahramonlar individual xarakter va ruhiy kechinmalarni ifodalash bilan birga, muayyan jamiyatning axloqiy me‘yorlari, ijtimoiy ziddiyatlari va hayotiy haqiqatlarini ham aks ettiradi. Shu jihatdan ularning hikoyalarida ayol obrazining badiiy talqinini qiyosiy adabiyotshunoslik asosida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy izlanishda Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi ayol qahramonlar talqini qiyosiy-adabiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida ularning ruhiy olamini ochish usullari, xarakter yaratish tamoyillari, ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq jihatlari hamda poetik o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ikki adib ijodida ayol obrazining umumiy va farqli tomonlarini aniqlash asosiy maqsad qilib olinadi.

Adabiyotlar tahlili. Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazining badiiy talqini masalasi turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. G‘arb adabiyotshunosligida Somerset Moem hikoyalaridagi ayol qahramonlar ko‘proq gender tahlili, feministik tanqid va imagologik yondashuv doirasida talqin etilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodidagi ayol obrazlari xarakter yaratish mahorati, ruhiy tasvir, ijtimoiy muhit va axloqiy-estetik mazmun bilan bog‘liq holda yoritilgan. Shu jihatdan, mavjud ilmiy manbalar har ikki adib ijodida ayol qahramonning ruhiy olami, ijtimoiy mavqei va badiiy vazifasini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Somerset Moem hikoyalaridagi ayol qahramonlarni tadqiq etishda F. Massarentining ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. U “Women’s Experimental Economies in W. Somerset Maugham’s Short Fiction: Negotiating Women’s Roles in “Daisy”, “The Colonel’s Lady” and “The Creative Impulse” maqolasida Moemning “Deyzi”, “Polkovnikning xotini” va “Ijodiy turtki” hikoyalaridagi ayol personajlarni tahlil qilib, “Ayol qahramonlar iztiroblar, muvaffaqiyatsizliklar va yutuqlarning yorqin ifodachilariga aylanadi”[1], deb yozadi. Bu fikr uning hikoyalaridagi ayol obrazlari sust va an’anaviy timsollar emas, balki murakkab hayotiy sharoitda shakllangan faol badiiy subyektlar ekanini ko‘rsatadi. K. Semerin “The Conquest and Resistance, a Woman and a Man: Feminist and Imagological Reading of W. S. Maugham’s “The Unconquered” maqolasida “Bo‘ysunmagan” hikoyasidagi Annette obraziga murojaat qilib, “Annette oxir-oqibat o‘z sha’ni, shaxsiy va milliy erkinligini faqat o‘zi qodir bo‘lgan yagona yo‘l bilan himoya qilishga qaror qiladi”[2], degan xulosaga keladi. Tadqiqotchining bu qarashi adib ijodida ayol timsoli jabrlanuvchi qiyofasidan

tashqariga chiqib, ichki qarshilik va sha'nni saqlab qolish ramziga aylanishini anglatadi. Shuningdek, Lavanya G. va R. Kalpana "Portrayal of Women Characters in Selected Short Stories of D. H. Lawrence and W. Somerset Maugham: A Comparative Study" maqolasida, xususan, "Yomg'ir" hikoyasidagi Sadie Thompson haqida "Miss Sadi erkinlik havosidan nafas oladigan qizdir"[3], deb ta'kidlaydi. Bu yondashuv yozuvchi hikoyalaridagi ayol qahramonlarning ijtimoiy bosimga qaramay ichki erkinlik hissini saqlab qolishini ko'rsatadi.

Abdulla Qahhor hikoyalaridagi ayol obrazlari o'zbek adabiyotshunosligida asosan yozuvchining xarakter yaratish san'ati, ruhiy tasvir vositalari va ayol qahramonning ma'naviy-estetik mohiyati nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Bu borada Malohat Jabbarovanning "Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasviri" tadqiqoti muhim o'rin tutadi. U Qahhor yaratgan ayol obrazlari haqida: "Abdulla Qahhor yaratgan ayol obrazlari bir-birini takrorlamaydi. Ularning har biri to'la ma'nodagi yangi, original obrazlardir"[4], deb yozadi. Bu qarash yozuvchi nasrida ayol qahramonlar tayyor qolip asosida emas, balki individual xarakter va murakkab ruhiy olam egasi sifatida yaratilganini ko'rsatadi. Muallif "Ming bir jon" hikoyasidagi Mastura haqida oddiy ayol emas, u o'ta kuchli va irodali inson ekanini oson payqash mumkinligini aytadi. Maxsuma Dehqonova va Umidaxon Mirzagaliyeva "Abdulla Qahhor hikoyalarida xotin-qizlar obrazi" maqolasida "Ming bir jon", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarini tahlil qilib, Masturani "Kuchli iroda va sabr timsoli bo'lgan ayol"[5] sifatida baholaydi. Ularning fikricha, hikoyanavis xotin-qizlar taqdirini tarixiy davr, ma'naviy muhit va ichki kechinmalar bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Shu bois bu maqolada ayol obrazi zaif personaj emas, balki sabr, matonat va yashash irodasini ifodalovchi badiiy markaz sifatida talqin etiladi. Shoxida Allaberganova va Sevara Japbarberganova "Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasidagi Unsin timsolida ayollar sha'ni" maqolasida Unsin obrazini o'rganib, uni "O'sha davr ayollarining tahqirlangan sha'ni va iztirobli hayotining umumlashgan timsoli"[6] sifatida talqin qiladi. Bu fikr Unsin qiyofasida individual fojiadan tashqari muayyan davr ayollariga xos umumiy ruhiy-ijtimoiy holat mujassamlashganini ko'rsatadi. Shodiyeva Shaxro'za Jovli qizi esa "Abdulla Qahhor hikoyalarida inson ruhiyatining tasvirlanishi va xotin-qizlar obrazi" maqolasida "Mayiz yemagan xotin" hikoyasi haqida "Yozuvchi ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning ichki dunyosi va ijtimoiy roli haqida chuqur fikr yuritadi"[7], deb yozadi. Bu qarash Qahhor hikoyalarida ayol obrazi faqat maishiy doira bilan cheklanmasdan, kengroq ijtimoiy-axloqiy mazmun kasb etishini anglatadi. D.U. Rasulova va X.R. Ergasheva "Abdulla Qahhor "Ming bir jon" va O. Genrining "So'nggi yaproq" hikoyalarining qiyosiy tahlili" maqolasida Mastura obraziga to'xtalib, "Masturadagi ishonch va umid o'zining kuchli xarakteri samarasidir"[8], degan fikrni ilgari suradi. Ushbu xulosa qahramonning ichki ruhiy qudrati va hayotga bo'lgan ishonchi uning poetik mohiyatini belgilovchi asosiy belgilardan biri ekanini ko'rsatadi. Demak, mavjud ilmiy manbalarda Somerset Moem va

Abdulla Qahhor hikoyalaridagi ayol obrazlari turli nuqtayi nazarlardan yoritilgan. Biroq ularni qiyosiy-tipologik asosda bir butun holda tadqiq etish, ayniqsa ayol qahramonning ruhiy murakkabligi, ijtimoiy bosim bilan munosabati, axloqiy pozitsiyasi va poetik vazifasini ikki adib ijodi misolida yonma-yon ko'rib chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Shu ma'noda, mavjud adabiyotlar ushbu maqola uchun zarur nazariy va metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Metodologiya. Bu tadqiqotda Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazining badiiy talqinini yoritish uchun qiyosiy adabiyotshunoslikda keng qo'llanadigan metodlarga tayanildi. Ilmiy izlanishning asosiy metodologik negizini qiyosiy-tipologik metod tashkil etdi. Ushbu metod yordamida har ikki adib hikoyalaridagi ayol qahramonlarning ruhiy murakkabligi, axloqiy pozitsiyasi, ijtimoiy bosim bilan munosabati, sabr, iztirob, ichki qarshilik va ma'naviy qudrat kabi umumiy poetik xususiyatlari aniqlashtirildi. Bu metod turli milliy adabiy muhitga mansub asarlarda o'xshash badiiy hodisalarning qanday shakllanishini ko'rsatish imkonini berdi. Maqolada qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanildi. Bu metod Moem va Qahhor ijod qilgan davrning tarixiy-adabiy sharoiti, ijtimoiy muhiti va milliy-madaniy asoslarini inobatga olib tahlil yuritishga xizmat qildi. Ayol obrazi muayyan zamon, muhit va axloqiy qarashlar bilan bog'liq holda shakllanganligi sababli, uning mazmuni hamda badiiy vazifasi tarixiy kontekstda ko'rib chiqildi. Shu yo'l bilan ingliz va o'zbek hikoyachiligida ayol qahramon talqiniga ta'sir etgan tarixiy-adabiy omillar yoritildi. Ishda qiyosiy-chog'ishtirish metodi alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod asosida har ikki adib hikoyalaridagi ayol obrazlarining, avvalo, farqli jihatlari, ya'ni ularning o'ziga xos poetik va milliy-estetik tomonlari ochib berildi. Jumladan, qahramonlarning xarakter qurilishi, ichki kechinmalarni ifodalash usuli, hayotiy pozitsiyasi, muallif munosabati hamda badiiy yuklamasidagi tafovutlar chog'ishtirish asosida tahlil qilindi. Bu metod har ikki adib ijodida ayol obrazining individual talqini va milliy ruh bilan bog'liq xususiyatlarini aniqroq ko'rsatishga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda matn tahlili metodi qo'llanildi. Bu metod yordamida hikoyalardagi ayol qahramonlarning portreti, dialogi, ichki kechinmalari, muallif tavsifi va badiiy detallari bevosita matn asosida o'rganildi. Bu usul obrazning tashqi qiyofasi bilan ichki mohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, shuningdek, ayol qahramonning syujetdagi vazifasi va ruhiy holatini asosli tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda germeenvtik metoddan ham foydalanildi. Bunda asardagi ayol obrazlari bilan bog'liq ma'no qatlamlarini sharhlashda muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Xususan, sha'n, sabr, iztirob, bo'ysunmaslik, axloqiy tanlov va ruhiy chidam kabi tushunchalar ayol qahramonlarning ichki dunyosi bilan bog'liq holda talqin qilindi. Bu yondashuv orqali obrazlarning faqat voqealar zanjiridagi o'rni emas, balki ularning estetik va ma'naviy mazmuni ham ochib berildi.

Ilmiy izlanish materiali sifatida Somerset Moemning "Romantik yosh xonim", "Polkovnikning xotini", "Bo'ysunmagan" hamda Abdulla Qahhorning "Nurli cho'qqilar",

“Mayiz yemagan xotin”, “Dahshat” hikoyalari tanlab olindi. Ushbu asarlar ayol obrazining sevgi va ijtimoiy me’yorlar, tashqi poklik va yashirin haqiqat, tahqir va ichki qarshilik kabi turli poetik yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishini kuzatish imkonini beradi. Hikoyalar tanlovida ayol qahramonning xarakteri, ruhiy holati va badiiy vazifasi aniq ifodalangan namunalari asos qilib olindi. Shunday qilib, tadqiqotda qo‘llangan qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chog‘ishtirish, matn tahlili metodi hamda germenevtik metodlari Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi ayol obrazining poetik, ruhiy va ijtimoiy-estetik mohiyatini izchil yoritish imkonini berdi. Ushbu metodlar majmui maqolaning ilmiy maqsadi va vazifalariga mos ravishda tanlanib, tahlilning mantiqiy izchilligi va dalilliligini ta’minladi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Qiyosiy tahlil har ikki adib ijodida ayol qahramonlar o‘rtasida umumiy tipologik yaqinliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ularning xarakter talqini, ruhiy holati, hayotiy tanlovi va fojiviy yechimida farqli jihatlar ham kuzatildi. Somerset Moemning “Romantik yosh xonim” va Abdulla Qahhorning “Nurli cho‘qqilar” hikoyalari qiyosida Dona Pilar va Zuhra obrazlari sevgini oilaviy tartib hamda ijtimoiy me’yorlardan ustun qo‘yuvchi qahramonlar sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Har ikkala qahramon ham shaxsiy tuyg‘usi yo‘lida uyidan ketadi va shu tanlovi bilan oilasiga iltirob keltiradi. Biroq Dona Pilar obrazida romantik his-tuyg‘u va muhabbatda aldanish fojeasi yetakchi bo‘lsa, Zuhra obrazida erklik, hayotiy tajribasizlik va maishiy turmushga tayyorsizlik kuchliroq ko‘rinadi. Natijada bu ikki qahramon qiyosida umumiylik sevgi yo‘lida ijtimoiy muhitga qarshi chiqishda, farq esa ularning fojiviy shakllanishida namoyon bo‘ldi.

Moemning “Polkovnikning xotini” va Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyalari tahlilida ayol obrazi tashqi poklik va ichki yashirin haqiqat qarama-qarshiligida qurilgani kuzatildi. Evie Peregrine ham, Mulla Norqo‘zining xotini ham dastlab er ko‘z o‘ngida sodiq, iboli va ishonchli ayol sifatida ko‘rinadi. Voqea rivojida esa ularning eriga xiyonat qilgani ayonlashadi. Bu ikki obrazdagi umumiylik tashqi qiyofa bilan yashirin hayot o‘rtasidagi tafovutda ko‘rinsa, farqli jihat Evie obrazida ichki sir va pinhon kechinma, Qahhor hikoyasidagi ayolda esa tashqi poklik niqobi ortidagi yashirin munosabatning ustunligida namoyon bo‘ldi.

Somerset Moemning “Bo‘ysunmagan” va Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyalari qiyosida Annette va Unsin obrazlari tahqir va zo‘ravonlik sharoitida ham ichki jihatdan sinmagan ayollar sifatida talqin qilinishi aniqlandi. Har ikkala qahramon ham tashqi tomondan himoyasiz ko‘rinsa-da, ichki qarshilik va bo‘ysunmaslikni saqlab qoladi. Biroq ularning fojiviy yakuni turlicha. Annette zo‘ravonlik oqibatida yuzaga kelgan ruhiy fojiviy holatda bolasini o‘ldiradi, Unsin esa zulmdan qutulish yo‘lida kurashib, o‘zi qurbon bo‘ladi. Shu tariqa, bu ikki obraz qiyosida umumiylik tahqir qarshisida ichki sinmaslikda, farq esa fojiviy tanlovning shaklida ko‘rindi. Umumiy natijalarga ko‘ra,

ingliz adibi hikoyalarida ayol qahramonlar ko‘proq ruhiy murakkablik, yashirin kechinma va shaxsiy tanlov bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. O‘zbek yozuvchisi hikoyalarida esa ayol obrazi sabr, matonat, sha‘n hamda maishiy-ijtimoiy bosim bilan uzviy aloqada ochiladi. Olib borilgan qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chog‘ishtirish, matn tahlil va germenevtik metodlari ayol obrazining umumiy poetik qonuniyatlari bilan birga, milliy muhit, tarixiy sharoit va individual uslub bilan belgilanadigan o‘ziga xos tomonlarini ham aniqlash imkonini berdi.

Muhokama. Olingan natijalar Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazi umumiy tipologik asosga ega bo‘lsa-da, uning badiiy talqini turli milliy-estetik yo‘nalishda shakllanganini ko‘rsatadi. Har ikki adib ijodida ayol qahramon ruhiy va ijtimoiy ziddiyatlar markazida tasvirlanadi, biroq bu ziddiyatlarning ochilish shakli bir xil emas. Moem hikoyalarida ayol obrazining ichki kechinmalari, yashirin iztiroblari va shaxsiy tanlovi ko‘proq markazga chiqsa, Qahhor hikoyalarida sabr, matonat, sha‘n va maishiy-ijtimoiy bosim bilan bog‘liq qatlam kuchliroq namoyon bo‘ladi. Dona Pilar va Zuhra obrazlari qiyosi sevgi motivining har ikki adib ijodida o‘xshash syujet asosida, ammo turlicha mazmunda talqin qilinganini ko‘rsatadi. Har ikkala qahramon sevgi yo‘lida oilaviy tartib va ijtimoiy cheklovlardan chiqadi, biroq Moem bu holatni romantik ishonch va fojiviy aldanish orqali ochadi, Qahhor esa unga hayotiy tayyorsizlik va maishiy sinov qatlamini qo‘shadi. Shu sabab bu qiyos sevgining faqat hissiy hodisa emas, balki qahramonning ruhiy shakllanishini belgilovchi sinov ekanini ko‘rsatadi. Evie Peregrine va “Mayiz yemagan xotin”dagi ayol qiyosi tashqi qiyofa bilan ichki mohiyat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yoritadi. Har ikkala hikoyada ham ayol dastlab pokiza va ishonchli timsol sifatida ko‘rinadi, keyin esa yashirin haqiqat ochiladi. Biroq Moem bu holat orqali ruhiy begonalik va ichki sirni ko‘rsatsa, Qahhor tashqi taqvodorlik va axloqiy niqobning yemirilishini ochib beradi. Bu farq ikki yozuvchi poetikasida psixologik va ijtimoiy-axloqiy urg‘ularning turlicha ekanini ko‘rsatadi. Annette va Unsin obrazlari qiyosi ayol sha‘ni, bo‘ysunmaslik va ichki chidam masalasini yanada ravshanlashtiradi. Har ikkala qahramon ham tahqir va zo‘ravonlik muhitida yashaydi, lekin ichki jihatdan taslim bo‘lmaydi. Shu bilan birga, ularning fojiviy tanlovi turlicha: Annette ruhiy chekkaga yetgan holatda va dushmandan to‘la-to‘kis qutulish uchun, uni eslatadigan hech bir nishon qolmasligi uchun o‘z bolasi tug‘ilgandan keyin uni daryoga cho‘ktirib yuboradi, Unsin esa zulmdan qutulish yo‘lida o‘zini qurbon qiladi. Demak, birida ichki portlash, ikkinchisida esa amaliy qarshilik ustun bo‘lib, har ikkala obrazda ham ayol qadrini saqlashga urinish markaziy mazmunni tashkil etadi.

Bu tahlillar adabiyotshunoslar qarashlari bilan ham uyg‘unlashadi. Ayniqsa, g‘arb tadqiqotchilari Somerset Moem hikoyalaridagi ayol qahramonlarning ruhiy murakkabligi va ichki qarshiligini ta’kidlasalar, o‘zbek adabiyotshunoslari Abdulla Qahhor ijodidagi ayol obrazlarining individual xarakteri, sabr-matonati va axloqiy-estetik mohiyatiga e’tibor qaratadilar. Shu jihatdan qiyosiy tahlil har ikki yozuvchi hikoyalarida ayol obrazi

umumiy tipologik belgilar bilan birga, milliy muhit, tarixiy sharoit va individual uslub ta'sirida turlicha poetik vazifa bajarishini ko'rsatdi.

Xulosa. Somerset Moem va Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazi qahramon xarakterini ochish bilan cheklanmay, asarning g'oyaviy-ruhiy mazmunini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Qiyosiy tahlil natijalari har ikki adib ijodida ayol qahramon hayotiy sinovlar, ijtimoiy bosim, axloqiy tanlov va ichki iztiroblar jarayonida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Shu jihatdan ayol obrazi ularning hikoyalarida voqealar rivojini ta'minlovchi unsur bo'lish bilan birga, insoniy kechinmalar va davr ruhiyatini ifodalovchi badiiy markaz vazifasini ham bajaradi. Izlanish davomida Dona Pilar va Zuhra obrazlari qiyosida sevgining ijtimoiy me'yorlar va oilaviy tartiblarga qarshi qo'yilishi, Evie Peregrine va "Mayiz yemagan xotin"dagi ayol timsolida tashqi poklik bilan yashirin haqiqat o'rtasidagi ziddiyat, Annette va Unsin obrazlari qiyosida esa tahqir va zo'ravonlik sharoitida ichki sinmaslik masalasi aniqlashtirildi. Bu kuzatuvlar ayol qahramonlarning badiiy vazifasi har ikki yozuvchi ijodida turli shaklda namoyon bo'lsa-da, ularning ruhiy va axloqiy mazmuni asar poetikasida muhim o'rin egallashini tasdiqladi. Shuningdek, tadqiqot ingliz va o'zbek yozuvchisining hikoyalarida ayol obrazining o'xshash tipologik belgilar bilan birga, tarixiy sharoit, milliy muhit va individual uslub ta'sirida turlicha poetik yechimga ega bo'lishini ham ko'rsatdi. Moem hikoyalarida ayol qahramonning ichki kechinmalari, yashirin iztirobi va ruhiy murakkabligi nisbatan chuqurroq yoritilgan, Qahhor hikoyalarida ayol obrazi ko'proq sabr, matonat, sha'n va maishiy-ijtimoiy bosim bilan bog'liq holda ochiladi. Natijada ayol obrazi ikki adib ijodida nafaqat individual xarakter, balki muayyan madaniy va estetik tafakkurning ifodasi sifatida ham namoyon bo'lishi aniqlandi. Demak, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chog'ishtirish, matn tahlili va germeneytik metodlar Somerset Moem hamda Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazining umumiy va o'ziga xos tomonlarini aniqlashda samarali bo'ldi. Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy adabiyotshunoslikda ayol obrazi poetikasini o'rganish, ingliz va o'zbek hikoyachiligidagi badiiy mushtaraklik hamda farqli jihatlarni yoritishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Francesca, M. (2019). "Women's Experimental Economies in W. Somerset Maugham's Short Fiction: Negotiating Women's Roles in 'Daisy', 'The Colonel's Lady' and 'The Creative Impulse'." *Caliban*, no. 62, pp. 117-134. DOI: 10.4000/caliban.7025.
2. Semeryn, K. (2019). "The Conquest and Resistance, a Woman and a Man: Feminist and Imagological Reading of W. S. Maugham's 'The Unconquered'." *Accents and Paradoxes of Modern Philology*, vol. 1, no. 4, pp. 109-119. DOI: 10.26565/2521-6481-2019-4-7.
3. Lavanya, G., Kalpana, R. (2021). "Portrayal of Women Characters in Selected Short Stories of D. H. Lawrence and W. Somerset Maugham: A Comparative Study." *Review of International Geographical Education (RIGEO)*, vol. 11, no. 7, pp. 3534-3540. DOI: 10.48047/rigeo.11.07.323.
4. Jabbarova, M. (2024). Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasviri. *Avtoreferat, Buxoro, Durdona*.

5. Dehqonova, M., Mirzagaliyeva, U. (2023). “Abdulla Qahhor hikoyalarida xotin-qizlar obrazi.” *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, vol. 3, no. 3, pp. 1336 - 1345.
6. Allaberganova, Sh., Japbarbergenova, S. (2023). “Abdulla Qahhorning ‘Dahshat’ hikoyasidagi Unsin timsolida ayollar sha’ni.” *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, vol. 3, no. 2, part 2, pp. 143-148. DOI: 10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-70.
7. Shodiyeva, Sh. (2025). “Abdulla Qahhor hikoyalarida inson ruhiyatining tasvirlanishi va xotin-qizlar obrazi”. *Journal of Universal Science Research*, vol. 3, no. 6, pp. 134-140.
8. Rasulova, D., Ergasheva, X. (2023). “Abdulla Qahhor “Ming bir jon” va O. Genrining “So‘nggi yaproq” hikoyalarining qiyosiy tahlili”. *Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Scientific progress* vol. 4 | issue 5 | ISSN: 2181-1601
9. Maugham W.S. (1988). *Sixty-five short stories*. Great Britain.: William Clowes Limited, Beccles and London.
10. Qahhor. A. (2023). *Hikoyalar to‘plami*. Toshkent.: Ilm-ziyo-zakovat.

